

## Mark Zuckerberg



Zuckerberg 2019-yilda

<b>Tavalludi</b>	Mark Elliot Zuckerberg 14-may 1984-yil (39 yosh) White Plains, New York, A. Q. Sh.
<b>Fuqaroligi</b>	<span><span><span></span></span><span> </span></span> AQSh
<b>Taʼlimi</b>	Ardley High School (1998-2000) Phillips Exeter Academy (2000-2002) Harvard universiteti (2002-2004)
<b>Faoliyat yillari</b>	2004-hozirgacha
<b>Turmush oʻrtogʻi</b>	Prissila Chan
<b>Bolalari</b>	2
<b>Ota-onasi</b>	Edvard Zuckerberg Karen Zuckerberg
<b>Veb-sayti</b>	<a href="http://markzuckerbergofficial.com">markzuckerbergofficial.com</a>

Imzosi

**Mark Elliot Zuckerberg** (talaffuzi: *Mark Zakerberg*;<sup>[1]</sup> 14-may 1984-yilda tugʻilgan) amerikalik **Facebook** ijtimoiy tarmogʻi asoschisi va texnika ishlab chiquvchi, milliarder va sionistdir.<sup>[2][3]</sup> Hozirda **Silicon vodiysida** yashamoqda (**Palo-Alto** shahri). 2021-yil holatiga koʻra, Zuckerberg \$98,1 milliard sohibi boʻlib, **dunyo boʻyicha eng badavlat insonlar roʻyxatida oltinchi oʻrinda** turadi.

## Biografiyasi[tahrir | manbasini tahrirlash]

Zuckerbergning otasi **yahudiy** stomatolog boʻlib ishlagan, onasi esa — psixolog **yahudiy** boʻlgan. U maktab yillarida kompyuter dasturiga ishqivoz edi, tarmoq versiyasida **Risk** oʻyinlarini ishlab chiqqan. Mark **Microsoft** va **AOL** kompaniyalar ishga joylashish haqidagi taklifini rad etadi, u **Harvard universitetining** psixologiya fakultetiga oʻqishga kiradi<sup>[4]</sup>. Mark Garvardda qoʻshimchasiga AT kurslariga ham qatnardi.

Ayni oʻsha Harvard vaqtlari **Chris Hughes** bilan birgalikda Facebook ijtimoiy tarmoqni yaratishni boshlashadi. Unga moliyaviy yordamni kelib chiqishi braziliyalik boʻlgan talaba **Eduardo Saverin** koʻrsatdi. Mark bir necha bor **hakerlikka** qiziqishi boʻlgan.<sup>[5]</sup> Uning urinishlari Eduardo Saverin kompaniya boshqaruvidan chetlatdi, oxir-oqibat 2005-yilda ishni sudda koʻrib chiqishgacha bordi.

2009-yil yanvar oyida Mark **Palo-Alto** sahrida **Yuriy Milner** bilan tanishib oladi<sup>[6]</sup>. 2009-yil 26-may bitim imzolaydi, unga koʻra **DST** 200 mln AQSh dollari evaziga Facebook aksiyasining 1,96% foizini sotib oladi.

Mark **yahudiy** oilada tarbiya topgan boʻlsa-da, oʻzini **ateist**, deb taʼriflaydi.<sup>[7][8]</sup>

## Filmda[tahrir | manbasini tahrirlash]

*Asosiy maqola: Ijtimoiy tarmoq (film)*

*Ijtimoiy tarmoq* (2010) filmi yaratilish tarixi **Aaron Sorkin** ssenariysi asosida va **David Fincher** ishtirokida suratga olindi. Bu film **J. Hoberman** kelishuvi bilan, kadrda Mark Zuckerbergning — ijtimoiy tarmoqdagi boshqalardan ajralib turadigan foydalanuvchilarining psixologik tahlil jarayoni aks etgan.<sup>[9]</sup> Bosh rolda aktyor **Jesse Eisenberg** boʻljak milliarderni talqin etadi. Zuckerberg film loyihaga hech qanaqa aloqasi yoʻqligi, hattoki intervyusida undan uzoqroq boʻlishini aytgan.<sup>[10]</sup>